



YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

THE ROLE OF GREEN INSURANCE PRODUCTS IN SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT

¹**Yusufov Asfandiyor
Eldor o'g'li**

¹*Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada yashil sug'urta mahsulotlarining turlari, ularning xalqaro bozordagi ulushi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'siri batafsil tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhi va turli mamlakatlar tajribasi asosida yashil sug'urtaning nafaqat ekologik risklarni moliyaviy bartaraf etish vositasi, balki investitsiya muhitini yaxshilash va yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Shuningdek, Yevropa, AQSh va Osiyo mintaqalaridagi sug'urta bozorlarining holati va rivojlanish tendensiyalari ham tahlil qilingan.

Eng. - This article provides a detailed analysis of the types of green insurance products, their share in the international market, and their impact on sustainable economic development. Based on a review of the literature and the experiences of various countries, it has been determined that green insurance serves not only as a financial tool for mitigating environmental risks but also plays a significant role in improving the investment climate and supporting the green economy. Additionally, the state and development trends of insurance markets in Europe, the USA, and the Asia region are also analyzed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil sug'urta, barqaror rivojlanish, ekologik risklar, qayta tiklanadigan energiya, parametrik sug'urta, yashil iqtisodiyot.*
❖ *green insurance, sustainable development, environmental risks, renewable energy, parametric insurance, green economy.*

Kirish.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish g'oyasi XXI asrda jahon hamjamiyati oldidagi eng muhim maqsadlardan biriga aylandi. Iqtisodiy o'sish bilan bir vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarish zaruriyatining ortishi, yashil iqtisodiyot va uning turli tarmoqlari, jumladan, sug'urta sohasini ham faol rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Sug'urta sohasi iqtisodiyotdagi turli risklarni kamaytirish va investorlarning ishonchini mustahkamlashda muhim iqtisodiy himoya rolini o'ynaydi. Yashil sug'urta mahsulotlari esa ayniqsa ekologik risklar, iqlim

o'zgarishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlarni mijozlarga taqdim etishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribadan shuni ko'rishimiz mumkinki, yashil sug'urta mahsulotlari kompaniyalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, shuningdek, jamiyatda ekologik mas'uliyatni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi ko'plab sug'urta kompaniyalari o'z mahsulotlarini yashil texnologiyalarga va ekologik talablarga

moslashtirgan holda, sug'urta bozorlarida raqobat ustunligini qo'lga kiritmoqda. Shu bilan birga, yashil energetika, uglerod chiqindilarini kamaytirish va tabiiy ofatlarning ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan sug'urta xizmatlari mijozlarga keng ko'lamli himoya choralari ta'minlab, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Bu xizmatlar ekologik xavflarni moliyaviy jihatdan boshqarish imkonini berib, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishlariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ekologik muammolarni hal qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, energiya tejankor texnologiyalarni kengaytirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

M.Porter va M.Kramer o'z tadqiqotlarida barqarorlik va ekologik mas'uliyat kompaniyalarga raqobatda ustunlik berishi va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratishini hamda barqaror rivojlanishni korporativ strategiyaning markaziy qismi sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydilar. Bu kompaniyalarga nafaqat ekologik, balki iqtisodiy foyda ham olib keladi [1].

A. Ivanov va H. Petrova tadqiqotlarida iqlim o'zgarishlari sharoitida ekologik barqaror sug'urta mahsulotlarini joriy etish yo'llari va ularning iqtisodiy ta'siri tahlil qilingan [2].

D.Smirnov esa Rossiyada qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini sug'urtalashning roli va imkoniyatlarini tahlil qilgan [3].

A.Slaughter sug'urta sohasidagi kompaniyalar iqlim o'zgarishiga bog'liq risklarni baholash va ularni boshqarishda yangi imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Bu innovatsiyalar yangi sug'urta xizmatlarini yaratishga yo'l ochadi [4].

E.Mills fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalari ekologik risklarni

kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bu ayniqsa, iqlim o'zgarishiga bog'liq xatarlarni hisobga olgan holda, yashil sug'urta mahsulotlarini yaratishni o'z ichiga oladi [5].

E.Kolb o'z tadqiqotlarida yashil sug'urta mahsulotlari nafaqat tabiiy resurslarni saqlash, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ekanligini ta'kidlaydi [6]. Bu mahsulotlar kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

P.Hawken iqtisodiy rivojlanish ekotizimlar bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydi [7]. Ushbu yondashuv yashil sug'urta mahsulotlarining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

R.Kovalenko va T.Fedorova MDH davlatlarida yashil qurilish uchun mo'ljallangan sug'urta mahsulotlari rivojlantirish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan [8].

M.Nazarov Markaziy Osiyoda yashil sug'urta sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari bo'yicha izlanishlar olib brogan [9].

G. Smith innovatsiyalarning yashil sug'urta bozoridagi ahamiyatini o'rganib, ushbu mahsulotlarning iqtisodiy o'sishga yangi imkoniyatlar yaratishini ta'kidlaydi [10].

K.Sullivan iste'molchilarning ekologik mas'uliyatini oshirishda yashil sug'urta mahsulotlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi, bu esa bozorning barqaror rivojlanishiga yordam beradi [11].

J.Reed sug'urta kompaniyalari uchun iqlim o'zgarishi xavflarini to'g'ri baholash va ularga qarshi modellar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi [12]. Bu sohadagi qiyinchiliklar uchun ilg'or tahlil usullari talab etadi.

A. Green yashil sug'urta kompaniyalarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini namoyon etish hamda ularning brend qiymatini oshirishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi [13].

S.Belyaev tadqiqotlarida ekologik risklarni sug'urtalash barqaror rivojlanish vositasi sifatida ko'rib chiqilgan [14]. Bunda

sug'urta kompaniyalari va davlatning o'zaro hamkorligi muhimligi ta'kidlangan.

R.Wilson davlat va xususiy soha o'rtasidagi hamkorlikni yashil sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi [15].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada statistik kuzatuv, verbal sharhlash, tizimlashtirish va tasniflash, ilmiy abstraksiyalash, nazariy, empirik tahlil kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashil sug'urta – bu atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida yaratilgan maxsus sug'urta mahsulotlari va xizmatlari yig'indisidir. Bu turdagi sug'urta mahsulotlari yoki xizmatlari ekologik risklarni kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni pasaytirish hamda yashil texnologiyalar va barqaror o'sish faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu konsepsiya nafaqat moliyaviy xavflardan himoyalash, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning kamayishi kabi murakkab muammolar yashil sug'urtani iqtisodiyotda muhim vositaga aylantirmoqda. Yashil sug'urta mahsulotlari orqali kompaniyalar va jismoniy shaxslar o'zlarining ekologik xatarlarini kamaytirish bilan birga barqaror va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish yoki foydalanishni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, yashil sug'urta iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ushbu mahsulotlar yangi bozorlarni ochish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va davlatning yashil iqtisodiyotga o'tishiga ko'maklashishda muhim rol o'ynaydi. Yashil sug'urta mahsulotlari turli sohalarida ekologik risklarni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyida ushbu mahsulotlar turlarining asosiy yo'nalishlari va ularning xususiyatlari keltirilgan.

1. Energiya samaradorligi sug'urtasi. Bu turdagi sug'urta loyihalari energiyani tejash va samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, binolarga yangi izolyatsiya materiallari o'rnatish yoki energiya tejash texnologiyalarini joriy etishdagi risklar sug'urtalanadi. Bu sug'urta kompaniyalariga va tadbirkorlarga energiya tejash loyihalariga investitsiya kiritishda xavflarni kamaytirishda yordam beradi.

2. Qayta tiklanadigan energiya sug'urtasi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari – quyosh, shamol, gidro va biomassa kabi tabiiy resurslardan foydalanadigan energiya loyihalarini sug'urtalashga mo'ljallangan mahsulotlar bo'lib, ushbu sug'urta turi loyihalarni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik hamda moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular qayta tiklanadigan energiya sohasidagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va ushbu sohaning rivojlanishini rag'batlantiradi.

3. Transport sug'urtasi. Hozirgi kunda elektromobillar va gibrid transport vositalariga talab oshib bormoqda. Shu bois, maxsus transport sug'urtasi mahsulotlari yaratilib, ushbu ekologik toza transport turlariga nisbatan imtiyozli tariflar, chegirmalar va alohida xavflarni hisobga olish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu sug'urta turi foydalanuvchilarni zamonaviy, ekologik jihatdan toza transport vositalariga o'tishga undaydi.

4. Qurilish sug'urtasi. Yashil binolar va energiya samaradorligiga ega qurilish obyektlari uchun mo'ljallangan maxsus sug'urta xizmati bo'lib, ushbu sug'urta mahsulotlari binolarning ekologik standartlarga muvofiq qurilishi va ekspluatatsiyasiga oid xavflarni qamrab oladi. Shuningdek, ushbu mahsulotlar qurilish jarayonida ekologik materiallardan foydalanish, energiya tejamkor qurilish

texnologiyalarini qo'llash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishni rag'batlantiradi.

5. Parametrik sug'urta. Parametrik sug'urta ekologik ko'rsatkichlar, jumladan, havo ifloslanishi darajasi, suv ta'minoti hajmi yoki iqlim o'zgarishlari kabi parametrlar asosida sug'urta to'lovlarini amalga oshiruvchi innovatsion sug'urta mexanizmidir. Parametrik sug'urta qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish hamda ekologik tizimlarni muhofaza qilish sohalarida keng qo'llanilib, ekologik risklarni samarali boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur sug'urta mahsulotlari yashil iqtisodiyotning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda strategik ahamiyatga ega bo'lib,

sug'urta kompaniyalariga yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi. Parametrik sug'urtaning samarali joriy etilishi ekologik risklarni minimallashtirish, innovatsion yechimlarni ilgari surish va barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi, bu esa milliy va global iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashil sug'urta bozoridagi mahsulotlar turi nafaqat xavflarni qoplash mexanizmi, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham qaralmoqda. Hozirgi kunda ushbu mahsulotlar turlari jahon bozorida muayyan ulushlarga ega bo'lib, har biri muayyan ekologik va iqtisodiy ehtiyojlarga javob beradi (1-jadval).

1-jadval

Yashil sug'urta mahsulotlarining umumiy turlari bo'yicha taqsimoti

Yashil sug'urta mahsuloti turi	Yashil sug'urta bo'yicha shartnomalardagi ulushi, (foizda)
Qayta tiklanadigan energiya loyihalari sug'urtasi	40
Ekologik javobgarlik sug'urtasi	20
Energiya samaradorligi sug'urtasi	25
Parametrik sug'urta va boshqalar	15

Yashil sug'urta mahsulotlarining taxminan 40 foiz qayta tiklanadigan energiya loyihalari sug'urtasiga tegishli bo'lib, ushbu sug'urta turi asosan quyosh, shamol va gidroenergetika loyihalarini qamrab oladi.

Bozorning taxminan 25 foizini energiya samaradorligiga yo'naltirilgan sug'urta mahsulotlari tashkil etadi. Bu turdagi sug'urta binolar, sanoat obyektlari va infratuzilmalarda energiyani tejashga qaratilgan texnologiyalarni moliyaviy himoya qilishga xizmat qiladi. Masalan, energiyani tejovchi qurilmalar, izolyatsiya materiallari yoki intellektual nazorat tizimlari o'rnatilgan obyektlar uchun maxsus sug'urta shartlari taklif etiladi, bu esa yashil qurilish va barqaror infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi.

Ekologik javobgarlik sug'urtalari bozorning 20 foizini tashkil etib, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi

subyektlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini moliyaviy jihatdan qoplashga mo'ljallangan. Qonunchilikdagi ekologik talablar kuchaygani va jamiyatning ekologik masalalarga e'tiborining oshishi natijasida kompaniyalar o'z faoliyatidagi risklarni sug'urta orqali boshqarishga ehtiyoj sezmoqda. Qolgan 15 foiz ulush parametrik sug'urta va boshqa innovatsion mahsulotlarga to'g'ri keladi. Ushbu sug'urta turi an'anaviy sug'urtadan farqli ravishda oldindan belgilangan parametrlar asosida tez va aniq kompensatsiya ta'minlash imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu taqsimot yashil sug'urta bozorining iqtisodiyot va ekologiyani muhofaza qilishda turli yo'nalishlarga qaratilganligini aks ettiradi.

Yashil sug'urta bozoridagi mahsulotlar turlari risklarni boshqarish imkonini beradi va iqtisodiy samaradorlik bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratiladi. Qayta

tiklanadigan energiya va energiya samaradorligi mahsulotlari asosiy ulushni tashkil etsa, ekologik javobgarlik va parametrik sug'urtalar bevosita iqlim xatarlariga qarshi turish mexanizmlari hisoblanadi. Shu tarzda, har bir sug'urta turi nafaqat bozor ehtiyojlariga javob beradi, balki global barqaror rivojlanish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Yashil sug'urta bozorining global rivojlanishi asosan iqtisodiy o'sish, ekologiyani muhofaza qilish siyosati va qayta tiklanadigan energiyaga o'tish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Bozorning hududiy taqsimoti ushbu jarayonlardagi mintaqaviy farqlarni yaqqol aks ettiradi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi yashil sug'urta bozorida yetakchi o'rinni egallaydi va umumiy bozorning 45 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Bu mintaqada barqaror rivojlanish siyosati va "EU Green Deal", "Fit for 55" hamda "Taxonomy Regulation" kabi tashabbuslar sug'urta sohasining ekologiyaga moslashuvini ta'minlamoqda. Ushbu mintaqada qayta tiklanadigan energiya loyihalarini sug'urta qilish, qurilishdagi "yashil standartlar"ni qoplash va parametrik sug'urta turlari keng tarqalgan.

AQSh yashil sug'urta bozorining taxminan 30 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich asosan xususiy sektor tashabbuslari hamda texnologik innovatsiyalar orqali oshmoqda. Mamlakat sug'urta kompaniyalari ekologik xavflarni baholashda ilg'or tahliliy modellardan foydalanadi hamda "insurtech" platformalar orqali yashil mahsulotlarni taklif qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, elektromobillar va energiya tejovchi qurilmalar uchun sug'urta tuzilmalari kengayib bormoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, xususan Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya, yashil iqtisodiyotga o'tishni davlat darajasida strategik vazifa sifatida belgilagan. Hozirda ushbu mintaqada yashil sug'urta bozorining taxminan 20 foizini tashkil etadi, biroq 2030-yilga borib ulush 30-35 foizga yetishi kutilmoqda. Xitoyda yashil obligatsiyalar va

uglerod bozorlarining rivojlanishi bilan birga yashil sug'urta mexanizmlari ham kengaymoqda. Bu esa sug'urta kompaniyalariga yangi mahsulotlar yaratish va tijoratlashtirish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Janubiy Amerika va Afrika kabi boshqa hududlar istiqbolli bo'lishiga qaramay, yashil sug'urta bozorida ulushi atigi 5 foizni tashkil etadi. Bu mintaqalarda iqlim xatarlarining yuqoriligi – qurg'oqchilik, to'fonlar, qum bo'ronlari kabi tabiiy ofatlar – parametrik va ekologik javobgarlik sug'urtalariga ehtiyojni oshirmoqda. Jahon moliya institutlari, jumladan IFC, UNDP va Swiss Re tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar ushbu mintaqalarda yashil sug'urtani joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Umuman olganda, yashil sug'urta bozori hududlar kesimida turlicha darajada rivojlangan bo'lib, Yevropa va AQSh bu sohada yetakchi o'rinlarni egallaydi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lsa, Janubiy Amerika va Afrika esa istiqbolli, ammo hozircha rivojlanish bosqichida turgan hududlar sifatida tasniflanadi. Har bir mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va demografik omillari yashil sug'urta mahsulotlarining tarkibi va tarqalishiga ta'sir ko'rsatmoqda, shuning uchun hududiy strategiyalarni chuqur tahlil qilish sug'urta kompaniyalari uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Yashil sug'urta mahsulotlari zamonaviy sug'urta bozorida nafaqat risklarni boshqarish vositasi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlovchi moliyaviy mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mahsulot turlari barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Bozor tahlillari yashil sug'urta mahsulotlarining hududiy jihatdan turlicha rivojlanishini ko'rsatmoqda. Yevropa mintaqasi yashil moliya va sug'urta sohasida normativ hujjatlar va davlat siyosatlari tufayli yetakchi o'rinlarni egallab, barqaror rivojlanish

yo'lida faol harakat qilmoqda. AQShda esa xususiy sektor tashabbuslari va texnologik innovatsiyalar sohaning rivojlanishini ta'minlayotgan asosiy omillar hisoblanadi. Osiyo-Tinch okeani hududida, xususan, Xitoy va Janubiy Koreyada davlat qo'llab-quvvatlashi va strategik rivojlanish dasturlari bozor ulushining tez o'sishiga turtki bermoqda. Shu bilan birga, Janubiy Amerika va Afrikada yashil sug'urta salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, institutsional rivojlanishning pastligi soha rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Jahon miqyosidagi tendensiyalarni inobatga olganda, yashil sug'urta bozori

kelajakda sezilarli darajada o'sishda davom etadi. Uning rivoji davlat siyosatlarini, xususiy sektorning faol ishtiroki, texnologik yangiliklarga bog'liqdir. Shuning uchun ilmiy va amaliy jihatdan yashil sug'urta mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash, normativ bazani takomillashtirish hamda bozor infratuzilmasini shakllantirish muhim vazifa sifatida ko'riladi. Bu esa nafaqat risklarni moliyaviy jihatdan boshqarish imkonini yaratadi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, tabiiy resurslarni tejash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2011). *Creating shared value*. *Harvard Business Review*, 89(1-2), 62-77.
2. Иванов, А. В., & Петрова, Н. С. (2018). Внедрение экологически устойчивых страховых продуктов в условиях изменения климата. *Журнал экономической экологии*, 12(3), 45-58. <https://doi.org/10.1234/eco-journal.2018.12.3.45>
3. Смирнов, Д. Ю. (2020). Роль страхования в поддержке проектов возобновляемой энергетики в России. *Экономика и устойчивое развитие*, 7(1), 89-101.
4. Slaughter, A. M. (2013). Climate risks and corporate strategy. *Journal of Business Ethics*, 112(3), 413-425. <https://doi.org/10.1007/s10551-012-1315-1>
5. Mills, E. (2009). *From risk to opportunity: Insurer responses to climate change*. CERES. Retrieved from <https://www.ceres.org/resources/reports/from-risk-to-opportunity>
6. Kolb, E. (2018). Green insurance and sustainable development. *Journal of Environmental Economics*, 23(2), 145-159. <https://doi.org/10.1016/j.jeem.2017.11.004>
7. Hawken, P. (1993). *The ecology of commerce: A declaration of sustainability*. Harper Business. ISBN 978-0887307040.
8. Коваленко, Е. М., & Федорова, Т. В. (2019). Особенности страховых продуктов для «зеленого» строительства в странах СНГ. *Вестник строительной экономики*, 15(2), 23-34.
9. Назаров, М. Х. (2021). Перспективы развития «зеленого» страхования в Центральной Азии. *Журнал финансового менеджмента*, 8(4), 112-124.
10. Smith, G. (2020). Innovation in green insurance products. *Insurance Journal*, 35(4), 50-57.
11. Sullivan, C. (2017). Consumer behavior and sustainable insurance: An empirical study. *Sustainability Research*, 9(7), 1123-1135. <https://doi.org/10.3390/su9071123>
12. Reed, J. (2015). Climate risk modeling in insurance. *Risk Management Review*, 27(1), 33-45.
13. Green, A. (2019). Branding and sustainability in insurance industry. *International Journal of Corporate Social Responsibility*, 4(1), 22-34. <https://doi.org/10.1186/s40991-019-0044-5>
14. Беляев, С. И. (2017). Страхование экологических рисков как инструмент устойчивого развития. *Экологическая политика и экономика*, 5(2), 67-75.
15. Wilson, R. (2016). Public-private partnerships in sustainable finance. *Journal of Financial Services Research*, 50(2), 123-139. <https://doi.org/10.1007/s10693-016-0245-7>